

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT**

Lingvistika

2025 Vol. 3 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib: Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova, Ma'suma Mo'minova, Durdona Mahkamova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“**Lingvistika**” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief: Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary: Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Sherquzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova, Ma'suma Muminova, Durдона Mahkamova.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamidulla Dadaboyev

“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni.....8

Dilafruz Muhammadiyeva

“Boburnoma” lugʻatlarining leksikografik talqini.....18

Sherzod Atamuradov

Sifatsiz tarjima ishlarini yuzaga keltiruvchi omillar.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Ona tili darslarida badiiy matn tashkil etishning lingvistik asoslari....44

Nargiza Imomiddinova

Xitoy tili harbiy terminologiyasi tizimida soʻz-terminlarning derivatsion xususiyatlari.....49

Sabohat Qahhorova

“Qadam+ fe'l” komponentli birliklarning maʼno tizimi va tezaurusi....66

Qudratillo Bakirov

Qadimgi turkiy tildagi vaqt maʼnoli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va “Devonu lugatit turk” da ifodalanishi.....76

Charos Jumaniyozova

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv87

Мехрибон Шамсиддинова

Преимущества и недостатки использования инновационных технологий в обучении китайскому языку97

Dildora Suyunova

Harbiy nomlar terminologiyasida maʼnodoshlik va shakldoshlik hodisalari.....109

Shodiya Qurbonova

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi.....116

Umriniso Pulatova

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi.....125

Maftuna Mamarasulova	
Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari	133
Madina Akramdjanova	
Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi	142
Nargiza O'ralova	
Parsellyatsiyaning o'rganilishi: ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar.....	149
Lola Usmonova	
Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi.....	157
Muxlisa Arislanova	
She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida).....	166
Durdona Bultakova	
O'zbek nutqiy etiketida fatik birliklarning qo'llanilishi.....	177
Ozodaxon O'ktamova	
Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalalik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari.....	183
Niluzar Axmedova	
O'zbek va ingliz tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksik birliklarning lisoniy qiymatini aniqlashda kontekst va madaniyatning roli.....	193

Content

Linguistics

Hamidulla Dadaboev

“Nahj al-Farâḍis” and Its Role in the Development of the XIV-Century
Turkic Literary Language Vocabulary.....8

Dilafroz Muhammadijeva

The lexicographic interpretation of the “Boburnama” dictionaries.....18

Sherzod Atamuradov

Factors that cause poor quality translation work.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Linguistic Foundations of Organizing Literary Texts in Mother Tongue
Lessons44

Nargiza Imomiddinova

Derivational features of word-terms in the system of military
terminology of the Chinese language49

Sabohat Qahhorova

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus.....66

Qudratillo Bakirov

Lexical-semantic study of time-meaning lexemes in the Old Turkic
language and expression in «Devanu Lugatit Turk».....76

Charos Jumaniyozova

An Anthropocentric Approach to the classification of Feature-attribute
semantics87

Mekhribon Shamsiddinova

Advantages and disadvantages of using innovative technologies in
teaching the chinese languages97

Dildora Suyunova

Phenomena of similarity in meaning and form in the terminology of
military names109

Shodiya Qurbonova

Speech act theory or expression of communicative purpose.....116

Umriniso Pulatova

The socio-stratification of youth slang.....125

Maftuna Mamarasulova

Theoretical foundations of the nomination process.....133

Madina Akramdjanova

The reflection of phytonyms in the linguistic picture of the world ...142

Nargiza O'ralova

The Study of Parcellation: Scientific Theories and Research.....149

Lola Usmonova

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena.....157

Muxlisa Arislanova

Linguocognitive foundations of metaphors in poetic texts: theoretical and practical analysis (on the example of the poems of Erkin Vakhidov).....166

Durdona Bultakova

The use of phatic units in the speech etiquette of uzbek language.....177

Ozodaxon O'ktamova

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication183

Niluzar Akhmedova

The Role of Context and Culture in Defining the Linguistic Value of Lexical Units Expressing Human Psychological States in Uzbek and English193

She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida)

Muxlisa ARISLANOVA¹

Annotatsiya

Metafora hodisasi o'zining ko'p qirrali ekanligi bilan nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslikda ham keng o'rganiladi, tadqiq etiladi. Bugungi kunda metaforani kognitiv fan nuqtayi nazaridan o'rganish, ayniqsa, dolzarblik kasb etmoqda. Ijodkorning o'zigagina xos bo'lgan so'z qo'llash mahoratini ilmiy jihatdan asoslash, nutqda yangi so'zlarning paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Ushbu maqolada she'riy matnlarda qo'llanilgan metaforalarning lingvokognitiv asoslari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Metafora – til vositasi bo'lishdan tashqari, inson tafakkurining mahsuli sifatida qaraladi va u orqali shoirning dunyoni qanday qabul qilgani, obrazli tafakkuri hamda madaniy-ma'naviy qarashlari namoyon bo'ladi. Maqolada metaforaning kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan talqini, uning konseptual asoslari, shuningdek, poetik obraz yaratishdagi roli yoritiladi. Erkin Vohidov ijodidan olingan namunalar asosida metaforik ifodalarni tahlil qilinib, ularning tafakkur jarayoni bilan bog'liqligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *kognitiv metafora, emotsional-ekspressiv ma'no, ko'chim, kognitiv vazifa.*

Inson nutqda o'z fikrini bayon etish uchun tildagi barcha birliklar (tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gap) dan foydalanadi. Leksik birliklar ya'ni, so'zlarni tilshunoslikning bir qismi sifatida o'rganish, so'zlarni nutqdan tashqaridagi o'z ma'nosi bilan birga ularning nutqda ifodalagan uslubiy ma'nolarini ham o'rganishni talab etadi. Nutq ifodaliligini ta'minlash uchun so'zlarni o'z ma'nosi bilan birga ko'chma ma'noda ham qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqimizdagi ko'chma ma'noli so'zlar emotsional-ekspressiv

¹ *Arislanova Muxlisa Zokir qizi* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktranti.

E-pochta: muxlisaarislanova@gmail.com

Iqtibos uchun: Arislanova M.. She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida). *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2025-3: 166-176.

bo'yoqdorlikni oshirish uchun xizmat qiladi. So'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylilik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Metafora hodisasi tilshunoslikda doim dolzarb va ahamiyatli bo'lgan. Bu hodisaga faylasuflar, mantiqchilar, sotsiologlar, psixologlar, tilshunoslar va adabiyotshunoslar ham muntazam ravishda murojaat qiladilar. Zamonaviy tilshunoslikda metaforani ko'rib chiqishning bir nechta ustuvor yo'nalishlari mavjud: kognitiv, lingvokulturologik, konseptual va boshqalar. Kognitiv metod tadqiqotni til egasining ongini o'rganishga yo'naltiradi. Metafora she'riy matnning asosidir. Tilshunoslar metaforaning o'ziga xos kognitiv funksiyasini ta'kidlaydilar: bu bilish vositasidir. Dunyo tilshunosligida shaxsiy va madaniy yondashuvlarga asoslanib, badiiy matnni lisoniy jihatdan to'laqonli idrok etish, ko'chma ma'noli so'zlar negizidagi o'zaro mutanosiblik va ularning she'riy matnda estetik faollashuvi masalasi muhim hisoblanadi. Inson borliqni idrok etadi va o'z bilimiga tayangan holda kognitiv mexanizmlar orqali voqelikni baholab, qiyosan ongida mujassamlaydi, so'ngra uni nutq tarzida shakllantiradi. Metafora qanchalik yangi bo'lsa, u shunchalik ifodali bo'ladi. Mohir so'z ustalari o'z asarlarida so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orqali ifodali, obrazli nutqning go'zal namunalari yaratadilar. Mazkur jarayonlarning so'nggi bosqichi verbal ifodaga ega bo'ladi. Bugungi kunda jahon tilshunoslari diqqat markazida insonning kognitiv faoliyati turgani ahamiyatga ega. Poetik olam real olamning proyeksiyasidir. Bundan kelib chiqadiki, metafora poetik matnda voqelikni aks ettirish uchun juda zarur materialdir. N.D.Arutyunovanning ta'kidlashicha: "Klassik metafora – bu sintezning tahlil sohasiga, obrazning tushuncha sohasiga, tasavvurning aql sohasiga, yakkalikning umumiylik sohasiga, individuallikning sinflar "mamlakati"ga kirib borishidir" [Арутюнова, 1999: 374]. Shoirning metaforaga bo'lgan e'tibori uning dunyoga oddiy qarashidan kelib chiqadi, u keng sinflar nuqtai nazaridan fikrlamaydi [Арутюнова, 1999: 381]. Metafora haqiqatga olib boradigan eng qisqa va to'g'ri yo'ldir, chunki u oddiy mantiqqa yot bo'lib, inson ongiga mustaqil ravishda to'g'ri xulosa chiqarishga imkon beradi. Metaforaning poetik diskurs bilan quyidagi xususiyatlari bog'liq:

- Obraz va ma'noning birlashuvi

- “Tasodifiy aloqalar”ni faollashtirish
- Soʻzma-soʻz perifrAZaga keltirilmaslik
- Maʼnoning sintetikligi, diffuzligi
- Turli talqinlarga yoʻl qoʻyish
- Motivatsiyaning yoʻqligi yoki ixtiyoriyligi
- Bilimga emas, tasavvurga murojaat
- Obyekt mohiyatiga olib boruvchi eng qisqa yoʻlni tanlash.

Metaforaning lingvokognitiv salohiyati muallifning predmet yoki hodisaga munosabatini ifodalash orqali namoyon boʻladi va bu koʻpincha kengaytirilgan metaforalarda oʻz aksini topadi. Metafora badiiy matnda muallif dunyoqarashi prizmasi orqali yangi obrazlar va yangi gʻoyalarni aks ettiradi. Badiiy matndagi metaforik modellar olamning individual-mualliflik manzarasini, yozuvchi idiositilini aks ettirishga yordam beradi va soʻzning ekspressiv boʻyogʻini (pafos, norozilik yoki kinoya) ochib beradi [Склярова, 2020:113]. Metafora badiiy diskursda baholash kategoriyasini obyektivlashtirish usullaridan biridir. Baholash – bu til birligining semantik tuzilishidagi tarkibiy qism, til vositalari bilan ifodalangan baho yoki birlik semantikasida obyektning ijobiy yoki salbiy xususiyati, obyektga maʼqullovchi yohud maʼqullamaydigan munosabat haqidagi maʼlumot [Апутьюнова, 1999: 375]. Darhaqiqat, inson aqli, tafakkur qonuniyatlari, bilim manbalari va unga erishish jarayonlari bilan falsafa, mantiq, psixologiya, biologiya kabi fanlar qadimdan shugʻullanib kelgan. Kognitiv fan doirasida esa bu masalalarning barchasi boshqacha yangraydi va zamonaviy fanda ilmiy bilimning yangi paradigmalari paydo boʻlishi bilan bogʻliq holda yuzaga keladi [Лакофф., Джонсон, 2004: 17]. Metaforani oʻrganishda kognitiv yoʻnalish rivojlanishining alohida bosqichi – konseptual integratsiya nazariyasi boʻlib, unda metaforizatsiya aralash mental makonlarni yaratish sifatida qaraladi. Ushbu nazariya tarafdorlarining diqqat markazida metafora kognitiv nazariyasining dastlabki koʻrinishiga qaraganda koʻproq konseptual tuzilmalar va proyeksiyalar turadi. Bu holat tahlilni qiyinlashtiradi, ammo nozik maʼnoviy farqlarni aniqlashga yordam beradi. Oʻzbek tilshunosligida maʼno koʻchish turlarining nutqiy mohiyatiga qiziqish, ijodkorlar asari misolida tahlil qilish qancha koʻp amalga oshirilgan boʻlmasin, ularning nazariy jihati va lingvokognitiv sharhi tilshunoslikda zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan yanada koʻproq oʻz tadqiqotchilarini kutmoqda. Soha rivojida sheʼriy matnlarda qoʻllangan koʻchma maʼnoli leksemalarning inson kognitiv strukturasi hamda til sistemasiga daxldorligini kognitiv mexanizmlar kesimida asoslash,

kontseptual metonimiya, kognitiv va kontseptual metaforalarni o'zaro farqlash, metaforik nominatsiya nazariyasining tadrijiy taraqqiyotini belgilash yuzasidan aniq xulosalarga kelish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir [Водолазкин, 2018].

Metafora she'riyatning eng keng qamrovli obrazli shaklidir, asrlar davomida shoirlar unga murojaat qilib keladi. Konseptual metaforalar o'quvchini ijodkor olamining poetik manzarasiga jalb etishga qaratilgan bo'lib, nutqiy ta'sir vositasi hisoblanadi. Metaforaning konseptual tizimda mavjud bo'lishining asosiy sababi, ularlar murakkab mavhumlikni tushunarliroq so'zlar yordamida izohlashi bilan fikrlash jarayonini osonlashtiradi. Aynan bir qator hodisalarni boshqa turdagi hodisalar atamalarida tushunish zarurati tafakkurning konseptual tuzilmalarida metaforaning tarqalishiga olib keladi. Metafora poetik matnning konstruktiv elementi bo'lib, hikoyaning umumiy fonini yaratadi, she'r muallifining voqelikka nisbatan muayyan qarashini yetkazadi, tilning boshqa tasviriy va ekspressiv vositalari bilan birgalikda subyektiv hikoyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, metafora shoir individual uslubining tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Poetik metaforada xarakterlovchi vazifa yorqin ifodalangan bo'ladi. Asosan, konnotativ ma'no aktuallashadi, chunki konnotatsiya ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, konnotativ ma'no komponentlari denotat ifodalagan metaforik ko'chimning semantik-stilistik qurshoviga ko'ra nominativ ma'nosining kengayishi bilan bog'liq. Boshqa tomondan, konnotativ ma'no denotativ ma'no bilan kesishib, uni xiralashtiradi, ba'zan esa siqib chiqaradi [Глебовна, 2009: 21]. Metafora va o'xshatish o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat: metafora semantik ahamiyati jihatidan uzoq bo'lgan hodisalar o'rtasida aloqa o'rnatishga qaratilgan. Bu, ayniqsa, badiiy metafora uchun xarakterlidir. O'xshatish esa, metaforadan farqli o'laroq, yuzada yotgan o'xshashlikni ajratishga asoslanadi. Metaforiklik kategoriyasi voqelik va bilish hodisalarining muhim umumiy xususiyatlarini aks ettiruvchi eng umumiy va fundamental tushunchalardan biri bo'lib, ular o'rtasidagi assotsiativ aloqalarni topish belgisi bilan bog'liq deyish mumkin. bugungi tilshunoslikda metafora avval ko'ringanidan ko'ra ancha murakkab va muhim hodisani ifodalaydi. So'nggi tadqiqotlar natijalari metafora olamning shaxsiy modelini shakllantirishda faol ishtirok etishi, insonning og'zaki va hissiy-obrazli tizimlarini birlashtirishda juda muhim rol o'ynashi, shuningdek, til, tafakkur va idrokni toifalashtirishning asosiy elementi ekanligini taxmin qilish imkonini beradi. Metafora

tafakkurning shunday quroli bo'lib xizmat qiladiki, uning yordamida biz konseptual maydonning eng uzoq uchastkalariga yetib borishga muvaffaq bo'lamiz. Bizga yaqin, tushunish oson bo'lgan obyektlar fikrlarga bizdan uzoq va sirg'alib ketadigan tushunchalarga yo'l ochadi. "Metafora aqlning "qo'lini" uzaytiradi; uning mantiqdagi rolini qarmoq yoki miltiq bilan taqqoslash mumkin" [Ортега-и-Гассет 1990: 72]. Poetik nutq sohasida metafora ma'noni shakllantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Bu holat poetik matn mazmuniga asos bo'lgan poetik obrazning o'ziga xosligi, borliqning asosiy qadriyatlariga subyektiv munosabatni ifodalashdan iboratligi bilan bog'liq. Bu matnning nutqiy to'qimasida obrazli ko'rgazmalilik va kechinmaning o'ziga xosligini aniq hissiy tasavvurlar va insonning o'z-o'ziga hamda atrof-muhitga bo'lgan, obrazli nutqdan tashqarida ifodalash mumkin bo'lmagan hissiy-baholash munosabatlari o'rtasidagi obrazli o'xshashlik asosida konnotativ nozikliklarning maksimal boyligi bilan qayta yaratish orqali sodir bo'ladi. Poetik metafora tasavvurlarning standartlashuvini yengishga intiladi. U yangiligi bilan ajralib turadi, yangi ma'nolarni rivojlantiradi, chuqur ma'no nozikliklarini ifodalaydi. Poetik metaforaning ta'siri uning yangiligi va o'ziga xosligiga asoslanadi. Matnda metaforalar belgilarni o'zgartirish vositasi sifatida qo'llaniladi [Глебовна, 2009: 44]. Metafora shoir individual uslubining tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. She'riy asarga emotsionallik bag'ishlashda metaforaning o'rni beqiyos. Metafora troplarning muayyan turi sifatida poetikada, so'zlarning yangi ma'nolari manbai sifatida leksikologiyada, nutqiy qo'llanishning maxsus turi sifatida pragmatikada, nutqni talqin qilish va idrok etishning assotsiativ mexanizmi va obykti sifatida psixolingvistikada, fikrlash va bilish usuli sifatida mantiq va falsafada o'rganiladi. O'zbek adabiyotida so'z qo'llash mahorati yuksak shoirlar talaygina. Ulardan biri – O'zbekiston xalq qahramoni Erkin Vohidovdir. Ijodkorning she'rlari o'quvchiga yaqinligi, o'ynoqiligi, o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Bu shoirning metafora qo'llash va yaratish borasidagi mahoratida ham yorqin kuzatiladi. Metafora leksik ma'no taraqqiyotini ko'rsatuvchi til hodisasi bo'lib, so'zlarning ko'chma ma'nosi asosida yaratiladi. Metaforizatsiya hodisasining zaminida qiyoslash natijasida erishilgan (aniqlangan) o'xshatish g'oyasi yotadi. Shoir ijodida metaforaning go'zal namunalari kuzatiladi:

Men jilg'aman,

Daryo bo'lib to'lgim keladi.

Ona yurtim, Senga o'g'lon bo'lgim keladi. [Vohidov, 2001:13].

Bu o'rinda jilg'a, daryo suv obyektlarining nomlari bo'lib, she'rda ular asosiy ma'nosi emas, balki insonga nisbatan ulg'ayish, unib-o'sish ma'nosini obrazli ifodalashga xizmat qilgan. E.Vohidov she'riyatida sifatlarning metaforik ma'noda qo'llanishi konnotativ ma'noga yo'l ochadi. Quyida kishining yosh belgisini ifodalovchi qari leksemasi muayyan predmetning, ya'ni dunyoning belgisi sifatida qo'llangan:

Ne davronlar kechmish qoldirib shuhrat,
Barchasiga shohid bu qari dunyo. [Vohidov, 2001:24].

Mazkur she'rda qari leksemasi uzoq umr ko'rgan kishi ma'nosini anglatmaydi. Uning dunyo so'ziga nisbatan qo'llanishi natijasida dunyoning qadimiyligi, uning ko'p voqealarga shohid bo'lganligi ifoda etiladi. Shoir ushbu metafora vositasida sifatlash bilan dunyoning boqiyiligi to'g'risidagi oddiy haqiqatga obrazli ishora qiladi. Natijada qari leksemasining metaforik qo'llanilishi pragmatik mazmunga yo'l ochadi. Pragmatik mazmunning yashirin ko'rinish kasb etishi esa she'rning ta'sirchanligini yanada oshirgan. O'zbek tilida metaforaning mazmuniy jihatdan bir turi sifatida farqlanuvchi jonlantirish san'ati ham badiiy matnga obrazlilik, emotsional-ekspressivlik baxsh etuvchi vositalardandir. Quyidagi metaforik qo'llashda insonga xos xarakter, xususiyat, holat va harakatlar jonsiz predmetlarga ko'chiriladi. Bu esa nutqning ta'sirchanligini yuzaga chiqaradi:

Rahmi kelib bulutning
Yig'lab to'kar yoshini.
Qushlar qochar, majnuntol
Ko'taradi boshini. [Vohidov, 2001:18].

Rahmi kelmoq, yig'lamoq, yosh to'kmoq, bosh ko'tarmoq kabi xususiyatlar insonlarga xos bo'lib, shoir ularni bulut va majnuntolga ko'chiradi. Bu holat tabiat manzarasining shunchaki tasvirini emas, uning inson qalbi tomonidan qabul qilinishi ifodasi sifatida berilgan. Bunda inson faqatgina kuzatuvchi emas, ona tabiatning dardkashi sifatida jonlanadi. Erkin Vohidov faqatgina inson xususiyatlarini jonsiz narsalarga emas, hayvon va qushlar, jonsiz narsalarga xos xususiyatlarni insonga ko'chirish usullaridan ham unumli foydalanadi. Ma'lumki, sayramoq qushlarga xos harakatdir. U metaforik yo'l bilan insonlarga ham ko'chirilishi mumkin. Bunda sayramoq so'z nutq vaziyatiga ko'ra gapirish harakatiga nisbatan so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalashda qo'llaniladi:

Hay'atlarda kekkayib,
Yayrab yurar Matmusa.
Biz undoq, biz bundoq deb,
Sayrab yurar Matmusa. [Vohidov, 2001:33].

E.Vohidovning "Sirdaryo o'lanlari" she'ridagi metaforik qo'llash o'ziga xos hayratlanarli. Unda insonlar uchun eng aziz ona timsoli daryoga ko'chiriladi:

Sen bizlarga axir mangu keraksan,
Oqib turgin, qurib qolma, onajon. [Vohidov, 2001:42].

Bu o'rinda shoir Sirdaryoning qurib qolmasligi yurt uchun nechog'lik katta ahamiyatga ega ekanligini insonlar uchun onaning o'rni qadar muhimligi bilan qiyoslaydi va yurt nomidan uni onajon deb nomlaydi. Bu metafora vositasida yaratilgan nido san'ati xalqning daryoga bo'lgan mehri, g'ururi va fidoyiligi kabi munosabatlari izhori sifatida yuzaga chiqadi. A.Xo'jamqulovning tasnifiga ko'ra metaforalar quyidagicha guruhlanadi. 1. Shakliy o'xshashlikka asoslangan metafora. Bunda leksemaning denotativ va hosila ma'nolari anglatgan tushunchalar o'rtasida shakliy (tashqi ko'rinish) jihatdan o'xshashlik ustunlik qiladi. Masalan, quloq – qozonning qulogi, og'iz – qopning og'zi, tish – arraning tishi va h.k.

Misol:

Oy fonusin ko'tardi osmon,
Yulduzchalar bo'ldi parvona.
Sayr etaylik, kel birga, jonon,
Ko'nglim seni istar yagona

Yoki:

Jilvalanib oqar edi
Muzdek zilol suv.
Suv labidan boqar edi
Shahlo ko'z suluv. [Vohidov, 2001:49, 65].

Shoir she'rlarida metaforalar ma'no-mazmuni badiiy va obrazli ifodalashga xizmat qilgan, ta'sirchanlikni kuchaytirgan.

Shunday, oyning yuzi dog' ekan...
Yulduzlar ham xuddi munchoq yosh...
Kunduz esa barcha nuridan
Yaratibdi birgina quyosh. [Vohidov, 2001:110].

Bu misrlardagi oyning yuzi dog' ekan, munchoq yosh so'zlari ma'noni kuchaytirish uchun qo'llangan.

Yoki:

Tuni bilan yig'labdi bulbul
G'uncha hajri dog'ida.
Ko'z yoshi shabnam bo'lib
Qolmish uning yaprog'ida. [Vohidov, 2001:115].

Erkin Vohidov she'riyatiga xos metaforalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegishli (xos) bo'lgan (tana a'zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora bo'lib, oyoq, qo'l, og'iz, til, tish, quloq, yeng, yoqa kabi leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishidir.

Tark etib ko'shkin, savatga
Qo'ydi bosh, izlab seni,
Charx urib bozor ichida
Bo'ldi sargardon uzum. [Vohidov, 2001:44].

Bu misralardagi bosh so'zi insonga tegishli bo'lgan a'zo nomi bo'lib, uning ma'nosi metaforik usulda uzumning bandi, yuqori qismini ifodalagan.

Fitomorfik metafora. Bu daraxt hamda o'simliklar va ularning qismlari nomini anglatgan leksemalar ma'nosining ko'chishi natijasida hosil bo'lgan metafora bo'lib, guncha, gul, daraxt, tikan kabi leksemalarning metaforik ma'noda qo'llanishidir.

Masalan:

Nuqtadek bir xoli bormish
G'uncha labning ustida... [Vohidov, 2001:51].

Bag'rimda qonlig' lolalar,
Ko'rgil bu achchiq nolalar. [Vohidov, 2001:64].

Kosmomorfik metafora. Osmon jismlari nomi asosida hosil qilingan metafora. Bunday metafora oy, quyosh, qamar, yulduz, osmon, nur kabi leksemalar ma'nosini metaforik usul bilan ko'chirish natijasida hosil bo'ladi.

Masalan:

Qanday yorug' yulduzsan, ajab,
Qanday porloq sayyoradirsan?
Yoki biror turkumdan ajrab
Biz yoqlarda ovoradirsan? [Vohidov, 2001:76].

Shoir ijodida mana shunday o'ziga xos ma'no ifodalovchi metaforalarni ko'plab uchratish mumkin. Ular o'quvchiga yaqinlikni va jozibadorlikni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, she'riy matnlarda metaforalar nafaqat estetik vosita, balki inson tafakkurining lingvokognitiv mahsuli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali shoirlar murakkab his-tuyg'ular, falsafiy tushunchalar va madaniy qadriyatlarini obrazli shaklda ifodalaydi. Nazariy jihatdan metaforani konseptual tahlil qilish, amaliy jihatdan esa she'riy matnlardagi aniq metaforalarni o'rganish, lingvokognitiv poetikaning asosiy vazifalaridandir. Kelgusida turli davr va madaniyatga oid she'riy matnlar asosida kognitiv metaforalarni solishtirma tahlil qilish muhim ilmiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Vohidov E. 2001. Saylanma III jild. – Toshkent.
- Хўжамқулов А. 2011. Ўзбек тилида метафоранинг таснифланишига доир // Лингвист. – Тошкент.
- Арутюнова Н.Д. 1999. Язык и мир человека. – Москва.
- Будаев Э.В. 2006. Метафорическое моделирование постсоветской действительности в российской и британской прессе: Дис. ... канд. филол. н. – Екатеринбург.
- Лакофф Дж., Джонсон М. 2004. Метафоры, которыми мы живем. Едиториал у РСС. – Москва.
- Водолазкин Е.Г. 2018. Авиатор. – Москва.
- Глебовна.С.Е. 2009. Лингвокогнитивные основы поэтической метафоры: Дис. ... канд. филол. н. – Москва
- Ортега и - Гассет Х. 1990. Две великие метафоры/7 Теория метафоры. – Москва.

